

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

RADIOSIGNALLARNI UZATUVCHI QURILMALAR

fanidan kurs ishini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar

Toshkent - 2017

UDK 621.396.61

Tuzuvchilar: Tojiyev A. A., Jabborov A.B.

«Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalar» fanidan kurs ishini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar– Toshkent: ToshDTU, 2017.

Ushbu uslubiy ko'rsatmalar «5350700 – Radioelektron qurilmalar va tizimlar (tarmoqlar bo'yicha)» yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda radiosignallarni uzatuvchi qurilmalarni loyihalash, ularning alohida qismlarini tanlash va hisoblash, strukturaviy hamda asosiy sxemalarini tuzish masalalari keltirilgan. Kurs ishini, bajarish uchun turli xilda topshiriqlar keltirilgan.

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universitetining ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan chop etildi.

Taqrizchilar: I.R.Faziljanov - t.f.n. Uz MU AL va KXX prorektori;
A.A. Yarmuhamedov – ToshDTU dotsenti.

KURS ISHINI BAJARISHDAN MAQSAD

5350700 – Radioelektron qurilmalar va tizimlar (tarmoqlar bo'yicha) yo'nalishining o'quv dasturiga asosan «Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalar» fanidan kurs ishi VIII - semestrda bajariladi. Kurs ishini bajarish talabalarni o'qitishning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, bunda quyidagi vazifalarni: ma'ruza paytida olingan nazariy bilimlarini muhandislik nuqtai nazaridan hisoblashni o'rganishini, talabalarning bitiruv malakaviy ishini loyihalashga tayyorlashni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Bundan tashqari, kurs ishini bajarish talabalarni maxsus texnik adabiyotlar bilan tanishish va ishlashni, tanlangan va hisoblangan radiosxemalarni tog'ri tahlil qilishni hamda ularni talab qilingan standart /ESKD va GOST/ darajasida chizishni o'rgatadi.

1. KURS ISHINI BAJARISHGA QO'YILGAN TALABLAR

«Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalar» fani bo'yicha kurs ishini bajarish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak.

1. Hisob natijalari, chizmalar va sxemalar keltirilgan tushuntirish yozuvi;
2. Radiosignallarni uzatuvchi qurilmaning barcha elementlari keltirilgan holdagi to'la sxemasi o'rniga tushuntirish yozuvida adabiyotlardan olingan nazariy tushunchalarni keltirish man qilinadi va uning elementlari asoslanib berilishi hamda uning ishlash usuli keltirilishi kerak. Kurs ishini loyihalash uchun kerak bo'lgan soha oldindan tanlanadi. Bu vaqt ichida talaba qo'yilgan vazifani to'la tushunishi, adabiyotlarni tanlashi va ular bilan tanishib chiqishi kerak.

Kurs ishini bajarishni quyidagi tartibda olib borish maqsadga muvofiqdir:

1. Radiosignallarni uzatuvchi qurilmaning struktura sxemasini tanlash va tuzish.

2. Sxemani mos ravishda tanlash va qurilmaning alohida qismlarini xomaki hisoblash.
3. Chiqish va chiqish oldi kaskadlarining ish holatini hisoblash.
4. Chiqish oldi kaskadining tebranish konturini tanlash va hisoblash.
5. Radiosignallarni uzatuvchi qurilmaning tavsifnoma va chizmalarini qurish va hisoblash hamda ularni talab qilingan qiymatlar bilan taqqoslash.
6. Ta'minlovchi manbaga qo'yilgan talablarni keltirish va qurilmaning ishlashi uchun sarf bo'layotgan quvvatni hisoblash.
7. Qurilmani barcha elementlari ko'rsatilgan holdagi prinsipial sxemasini tuzish.

Kurs ishinibajarish jarayonida topshiriqda ko'rsatilgan qiymatlariga rioya qilish kerak. Ishni bajarish paytida natijalarni o'qituvchiga ko'rsatish va uning maslahatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ish loyihalani bo'lgandan so'ng taqrizchi tomonidan ko'rib chiqiladi va ko'rsatilgan kamchiliklarni talaba tuzatgandan keyin himoya qilinadi.

Kurs ishini rasmiylashtirish

Kurs ishi hisoblash natijalari keltirilgan tushuntirish yozuvi va chizmalardan iborat bo'ladi.

Tushuntirish yozuvi 203x288mm o'lchamli oq varaqda yozilib, 20-25 bet qo'l yozmadan iborat bo'lib, o'z ichiga berilgan topshiriqni va fan hamda kurs ishi nomi keltirilgan ustki varaqani o'z ichiga oladi. Tushuntirish yozuvi oxirida ishlatilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Qo'llanilayotgan adabiyotlar tartib raqami bilan berilishi va ko'rsatilganda katta qavs ichida bo'lishi kerak. Hamma hisoblash formulalari oldin keltirilib, undan keyin ular asosida hisoblangan natijalar keltiriladi.

Mal'um kaskadni hisoblayotganda, uning sxemasini va unda ishlatilayotgan lampa yoki tranzistorning ish holatini keltirish kerak. Sig'im va qarshiliklarning hisoblangan qiymatlarini standart qiymatlarga yaxlitlab olish kerak. Prinsipial sxema standart varaqada qora qalam yoki

sharikli ruchka bilan aniq qilib, ESKD davlat standartlari /GOST/ talablariga binoan chiziladi.

Topshiriq

Kurs ishini bajarish uchun topshiriq qurilmaning vazifasi va qayerda ishlatilishiga qarab tuziladi. Topshiriq o'z ichiga keng talablarni olib quyidagilardan iboratdir:

1. Radiosignallarni uzatuvchi qurilmaning vazifasi.
2. Ish diapazoni.
3. Chiqish quvvati.
4. Foydali ish ko'effitsiyenti.
5. Modulyatsiya ko'effitsiyenti.
6. Kerakmas chastotalarni filtrlash qobilyati.
7. Ta'minlovchi manbaning pul'sasiya ko'effitsiyenti va kuchlanish o'zgarishining qiymati.

Bundan tashqari qurilmaning turiga qarab, yana qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin.

Kurs ishini bajarish uchun berilgan topshiriq 1-ilovada keltirilgan. Bundan tashqari talaba tomonidan uni istagiga qarab, zamonaviy qurilmani loyihalash taklif etilishi mumkin.

2. RADIOSIGNALARNI UZATUVCHI QURILMALARNI XOMAKI HISOBLASH

Bunday hisoblash jarayonida, qurilmaning taxminiy struktura sxemasi va asosiy tafsifnomalari aniqlanadi. Qurilmaning strukturaviy sxemasini tuzishda quyidagilar aniqlanadi:

1. Qurilma kaskadlarining soni.
2. Ish diapazonining chegarasi va uni nechta kichik diapazonlarga bo'linishi.
3. Har bir kaskadning chiqish quvvati.

4. Har bir kaskad uchun kerak bo'lgan tranzistorning turi.
5. Qurilmaning filtrlash qobiliyati.
6. Aktiv elementlarning (mikrosxema yoki tranzistor) ulanish sxemasi va ularning soni.
7. Har bir kaskadning vazifasi (quvvat kuchaytirgich tranzistor, chastota ko'paytirgich va h.k.).
8. Har bir kaskadning ish holati.
9. Modulyatordagi aktiv elementlar turi va soni.
10. Chastota turg'unligini amalga oshirish usuli.
11. Ta'minlovchi manba tanlanadi.

Hisoblash qurilmaning strukturaviy sxemasini chizish va qisqa ish usulini yozish bilan yakunlanadi. Qilingan hisoblash asosida qurilmaning asosiy xususiyatlari aniqlanadi.

Radiosignallarni uzatuvchi qurilmaning strukturaviy sxemasi

Radiouzatuvchi qurilmalarni bajarishda uni struktura sxemasini tanlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Berilgan topshiriq talablariga to'la javob beradigan struktura sxemasini tanlash uchun qurilmaning vazifasini, ish diapazonini, chiqishdagi chastota turg'unligini, modulyasiya turini tahlil qilib chiqish kerak. Hozirgi zamon radiouzatuvchi qurilmalari murakkab tizim bo'lib, uning alohida qismlari ma'lum bir vazifani bajaradi. Radiouzatuvchi qurilmalar quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Yuqori chastotali radioto'lqinlarni ishlab beruvchi qism.
2. Yuqori chastotali radioto'lqinlarni bosh qaruvchi qism.
3. Energiya bilan ta'minlovchi qism.
4. Sovutish (katta quvvat bilan ishlaydigan RUQ da) va boshqarish qismi.
5. Avariya holatlarining oldini oluvchi va u to'g'risida xabar beruvchi hamda blokirovka qiluvchi qism.


Kurs ishini bajarishda 1,2,3 – qismlar hisoblanadi.

Radioaloqani ishonchligi asosan qurilmaning chiqish quvvati va radioto'lqinlarning chastota turg'unligiga bog'liq bo'ladi. Bu ikki ko'rsatkichga

qo'yilgan talablarni bir kaskadli qurilmada amalga oshirish ancha qiyin masala. Shuning uchun radioaloqa bog'lashda asosan ko'p kaskadli qurilmalar ishlatiladi.

Talab qilingan chastota turg'unligi $\Delta f/f$ avtogenertorda (AG) amalga oshiriladi. Bunday avtogenertorning chiqish quvvati odatda kichik bo'ladi. Oraliq kaskadlarning soni qurilmani chiqish quvvatiga bog'liq.

Eng ko'p tarqalgan strukturaviy sxemalarini ko'rib chiqamiz. 1-rasmda amplitudali modulyatsiyali (AM) RUQning strukturaviy sxemasi keltirilgan. Bu yerda KAG – kvarsli o'z-o'zidan ishlovchi avtogenertor, BK – bufer kaskadi, ChK – chastota ko'paytirgich, CHO kaskd. - chiqish oldi kaskadi, QK – quvvat kuchaytirgich, MZ – moslovchi zanjir, M – modulyator, Mk – mikrofon,




1-rasm. AM modulyatsiyali RUQning strukturaviy sxemasi

TG – tonal generator, PK – past chastotali kuchaytirgichlar. KAG yuqori chastotali to'liqlarni ishlab beradi, BK - keyingi kaskadlarning KAGga bo'lgan ta'sirini kamaytiradi. ChK - chastotani kerakli darajaga kuchaytiradi. QK - radioto'liqlar quvvatini kerakli miqdorgacha kuchaytiradi. O'ta yuqori chastotali va UKV diapazonda IM RUQ ishlatiladi. Uning struktura sxemasi 2- rasmda keltirilgan.


Bu yerda IG – impul'sli generator, IK – impulsli kuchaytirgich, Modul. – modulyator, YuChgener. - yuqori chastotali generator. U past chastotali

tashkil etuvchisi bo'lgan to'rt burchakli impul'sga yaqin bo'lgan radioimpul'slarni ishlab beradi.

Chastotali modulyatsiyali radiosignallarni uzatuvchi qurilmalar (CHM RUQ) ikki turda bo'ladi: bevosita modulyatsiyali va bilvosita modulyatsiyali. 3-rasmda bevosita modulyatsiyali RUQning struktura sxemasi keltirilgan.




2-rasm. UKV diapazonda ishlovchi impulsli radiouzatuvchi qurilmani strukturaviy sxemasi



3-rasm. Bilvosita modulyatsiyali radiouzatuvchi qurilmaning struktura sxemasi

Mk – mikrofon, RE reaktiv element, AG - o'z- o'zidan ishlovchi avto-generator, CHK – chastota ko'paytirgichi, CHTHUQ – chastotaning turg'un holatida ishlovchi qism. CHOK – chiqish oldi kaskadi, QK – quvvat kuchaytirgichi. Uzatish kerak bo'lgan xabar REga kelib, uning sig'imini o'zgartiradi va shu bilan birga AG chastotasini o'zgartiradi. Odatda RE sifatida varikap ishlatiladi. Bu turdagi sxema kichik va o'rta quvvatli RUQlarda ishlatiladi.

Katta quvvatli RUQlarda bilvosita modulyatsiyali sxemalar ishlatiladi. 4-rasmda uning sxemasi keltirilgan.




4-rasm. Bilvosita modulyatsiyali radiouzatuvchi qurilmaning struktura sxemasi

AG - yuqori chastotali avtogenerator, FM – fazali modulyator, CHK – chastota ko‘paytirgich, QK - quvvat kuchaytirgichi, Mk – mikrofon , KZ – korreksiylovchi zanjir, chastota deviatsiyasini modulyasiya qiluvchi signalga bog‘liqligini susaytiradi. MZ- moslovchi zanjir. Bunday RUQning afzalligi – chastota turg‘unligi nisbatan yuqori bo‘ladi. Odatda yuqori chastotali generator sifatida kvars tebrantirgichli generator ishlatiladi. O‘rta va uzun to‘lqinlar diapazonida tranzistor yordamida 300W gacha quvvat olish mumkin. Detsimetrli to‘lqin diapazonida va 400MHz gacha bo‘lgan chastotalarda zamonaviy tranzistorlar yordamida 50Wgacha, 1GGz chastotada esa 20W gacha quvvat olish mumkin.

Ko‘p diapazonli RUQlarda «Kvars-Volna» turdagi generatorlar ishlatiladi. Odatda ularning ish chastotasi 10dan oshmaydi. Maxsus hollarda ish chastotasi f_r 10 dan ortiq bo‘lganda va chastota turg‘unligiga katta talablar qo‘yilganda chastota sintezatorlari ishlatiladi. Ularda maxsus o‘zgartirishlar yordamida etalon generator signalidan juda ko‘p ish chastotalarini olish mumkin. Chastota sintezatori 5-rasmda ko‘rsatilgan struktura sxemasi asosida ishlaydi. EG- etalon generator, chastota turg‘unligi yuqori bo‘lgan to‘lqinlarni ishlab beradi. GG – garmonikalar generatori, sinusoi-

dal to'ldirishni to'rt burchakli qisqa impul'sga aylantirib beradi. GS – garmonikalar selektori, kerakli garmonikani tanlaydi. SM₁- smesitel garmonikalar selektorini va yordamchi generator signallarini qo'shib, F₁ filtrga uzatadi.



5-rasm Chastota sintezatorining struktura sxemasi

Yr.Gen. – yordamchi generator, F₁ - o'tkazish qobiliyati tor bo'lgan filtr, SM₂ yordamchi generator va F₁ dan chiqqan signalni qo'shib, F₂ filtrga uzatadi. F₂ – sozlanadigan filtr, chiqish signalini qo'shni garmonikalardan tozalab, keyingi kaskadga uzatadi.

Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalarda kichik diapazonlar sonini aniqlash

Struktura sxemasi aniqlanganidan keyin RUQning ish diapazoni kichik diapazonlarga ajratiladi. Bunday ajratish qoplovchi koeffitsiyentini $K_f = f_{\max}/f_{\min} \geq 3$, bo'lganda, ya'ni keng diapazonli RUQlarda amalga oshiriladi. Amalda ikki xil usul bilan kichik diapazonlarga ajratiladi:

1) Har bir kichik diapazonlarning qoplovchi koeffitsiyentni $K_f = f_{\max}/f_{\min}$ ni doimiy qilib bo'lish.

2) Kichik diapazonlarning chastota oralig'ini bir xil qilib bo'lish, ya'ni $K_f = f_{\max} - f_{\min} = \text{const}$. Birinchi usul keng tarqalgan bolib, unda kichik diapazonlar soni ancha kam bo'ladi.

Kichik diapazonlar sonini aniqlash uchun, bir diapazon uchun qoplovchi koeffitsiyentini belgilab olish kerak. Agar ma'lum chastotaga sozlash uchun o'zgaruvchan sig'im ishlatilsa K_f 2-3 atrofida o'zgaruvchan induktivlik, ya'ni variometr ishlatilsa K_f 2-4 atrofida olinadi. U holda kichik diapazonlar soni quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$n = \frac{\lg K_f}{\lg K_f} = \frac{\lg f_{\max} / \lg f_{\min}}{\lg f_{\max} / \lg f_{\min}}$$

Umumiy diapazonni ikkinchi usul bilan kichik diapazonlarga bo'lish, odatda kam quvvatli va kichik hajmdagi RUQLarda ishlatiladi. Kichik diapazonlar soni nisbatan ko'p bo'ladi va ularni soni quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkin:

$$n = (f_{\max} - f_{\min}) \Delta f_g$$

Δf_g – bitta kichik diapazon band etgan chastota oralig'i. Ko'p hollarda Δf_g eng kichik diapazon uchun aniqlanadi. Buning uchun qoplovchi koeffitsiyent K_{fg} ni belgilab olish kerak, keyin quyidagi ifoda orqali band qilingan chastota oralig'ini aniqlash mumkin:

$$\Delta f = f_{\min} (K_{fg} - 1)$$

3. YUQORI CHASTOTA TO'LQINLARINI ISHLAB BERUVCHI GENERATOR SXEMASINI TANLASH VA CHASTO- TA TURG'UNLIGINI OSHIRISH USULLARI

Yuqori chastotali to'lqinlarni o'z-o'zidan ishlovchi generator (avto-generator) ishlab beradi. Bu generatorlarga qo'yilgan asosiy talablardan biri - iloji boricha chastota turg'unligi $\Delta f/f$ yuqori bo'lishi kerak. Tebranish

konturi induktivlik va sigʻimdan iborat boʻlgan generatorlarda $\Delta f/f = 10^{-2} \div 10^{-3}$ dan oshmaydi va generatorlar koʻp hollarda RUQlarda ishlatilmaydi. Metrli diapazonlarda tebranish konturi kvars rezonatorlardan iborat boʻlgan generatorlar ishlatiladi. Ularning chastota turgʻunligi $\Delta f/f = 10^{-4} \div 10^{-6}$ ni tashkil etadi. Qisqa toʻlqinli diapazonlarda va ish chastotasi f_p koʻp boʻlgan hollarda chastota sintezatorlari ishlatiladi. Sintezatorlarda chastota qadami $F_c = 1\text{KHz}, 100\text{Hz}, 10\text{Hz}$ boʻlishi mumkin. Kurs ishini loyihalashda ish diapazoni mos keladigan chastota sintezatorining turini tanlash bilan kifoyalansa boʻladi.

Oʻta yuqori diapazonda ishlovchi radiolokatsiyali va radionavigatsiyali RUQlarda klistron yoki magnetron asosida ishlovchi avtogeneratorlar ishlatiladi. Bu generatorlarni hisoblash va tanlash kurs ishini loyihalash vazifasiga kiradi.

Chiqish kaskadini tanlash









Chiqish kaskadida radiotoʻlqinlar juda katta quvvatgacha kuchaytiriladi. Shuning uchun RUQlarni foydali ish koʻeffitsiyentini aniqlashda, chiqish kaskadining sxemasini tanlash va uni antenna bilan moslash muhim ahamiyatga ega. Chiqish kaskadining tebranish konturi aktiv element (AE) qarshiligini isteʼmolchining qarshiligiga mos ravishda tenglashtirishi kerak. Bu holda RUQlarni foydali ish koʻeffitsiyenti (F.I.K.) yuqori boʻladi. Demak, kurs ishini loyihalashda chiqish kaskadini toʻgʻri tanlash asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi paytda MKKRga muvofiq kerakmas toʻlqinlarga boʻlgan talablar juda yuqori. Iloji boricha ularning miqdori kam boʻlishi kerak. 30 MHz dan past chastotada ishlovchi RUQlarda, yuqori garmonikalar quvvati 50 mW dan oshmasligi kerak. 30-235 MHz diapazonda ishlovchi radio va teleeshittirish qurilmalarida bu quvvat 1mW dan oshmasligi kerak. Tanlangan chiqish kaskadining sxemasi ancha murakkab boʻlib, tarkibida bitta yoki bir nechta oraliq hamda antenna konturi boʻlishi kerak. Bu holda umumiy F.I.K. biroz kamayadi. Lekin yuqori garmonikalarni filtrlash

yaxshilanadi. RUQlarning chiqish kaskadida ishlatiladigan tebranish konturlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tebranish konturlarining turlari

Moslovchi zanjir turlari	$A_{n,m}$	$A_{2,m}$
	$n(1-1/n^2)^2$	1,5
	$n^2(1-1/n^2)^2$	3
	$n^3(1-1/n^2)^2$	6
	$n^4(1-1/n^2)^2$	12
	$n(1-1/n^2)^2$	1,125
	$n^7(1-1/n^2)^2$	72
	$n^5(1-1/n^2)^2$	18
	$n^6(1-1/n^2)^2$	18

Antenna yoki iste'molchi oraliq kontur bilan transformator, avtotransformator yoki sig'im orqali bog'lanishi mumkin. Bog'lanish turi antenna va RUQning xususiyatlariga qarab tanlanadi. 2-jadvalda RUQning ish diapazoni, quvvati va kirish qarshiligiga qarab bog'lanish turini tanlash ko'rsatilgan.

100MGs ga ega bo'lgan diapazonda ishlovchi chiqish kaskadlarida umumiy katod yoki umumiy turli sxemada ishlovchi pentod va tetrodlar ishlatilishi mumkin

AE elementlarining quvvatini oshirish uchun ularni parallel ulash yoki ikki taktli quvvatini qo'shish sxemasini ishlatish mumkin. Tebranish konturini tanlashda uni filtrlash xususiyatiga qaratiladi. Bir taktli sxemalarda filtrlash xususiyati ikkinchi garmonika uchun, ikki taktli sxemada uchinchi garmonika uchun hisoblanadi. RUQlarning quvvati $P_{\sim} < 1\text{KW}$ bo'lganda bittadan oraliq ($m=1$) va istemolchi konturi, $P_{\sim} = 100\text{KW}$ bo'lganda ikkita oraliq ($m = 2$), $P_{\sim} > 100\text{KW}$ bo'lganda esa uchta oraliq konturlari ishlatiladi.

Berilgan quvvatga qarab oraliq konturlarining taxminiy soni (m), aniqlanadi va ikkinchi garmonika uchun filtrlash xususiyatini ko'rsatuvchi koeffitsiyent A_{2m} topiladi

$$A_{2m} \geq \frac{1,7\sqrt{P_{\sim}/K_i}}{(Q_s \frac{1 - \eta_{kmin}}{m})}$$

Bu yerda $P_{\sim}$ -radiouzatuvchi qurilmaning ish chastotasidagi quvvati, $K_i = 0,3 \dots 0,8$ - asosiy chastotadagi yuguruvchi to'lqin koeffitsiyenti, $Q_s = 100 \dots 400$ – konturning salt saxiyligi, $\eta_{kmin} = 0,7-0,95$ konturning F.I.K. Topilgan A_{2m} qiymatiga qarab, 1-jadvaldan tebranish konturining turi aniqlanadi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, P - ko'rinishdagi kontur boshqa konturlarga nisbatan radiosignallni uzatuvchi qurilmalarda keng

tarqalgan bo'lib, asosan 3 guruhdan iborat. Tebranish konturini tanlash va hisoblash juda ko'p adabiyotlarda keltirilgan.

2-jadval

Antenna va iste'molchi orasidagi bog'lanish turlari

RUQ va antenna xususiyatlari		Bog'lanish turlari
Quvvat	Kichik (sig'im orqali sozlash) O'rta va katta quvvat (sozlash variometry orqali)	Transformatorli Avtogeneratorli, sig'imli, induktivli tarmog'idan
Diapazon	1.2 -1.3	O'zgarmas bog'lanish
o'zgarishi	1.3	O'zgaruvchan bog'lanish
kirish	100 Om gacha	Transformatorli yoki sig'imli
Qarshiligi R_{kir}	100 Om dan yuqori	Sig'imli

AE ni tanlash antennadan uzatilishi kerak bo'lgan quvvatga asoslanadi. Ikki konturli kaskad uchun quvvat quyidagicha bo'ladi:

$$P_{tash} \geq P_a / \eta_o \eta_a$$

η_o - oraliq konturining foyldai ish koeffitsiyenti, P_{tash} -tashuvchi signal quvvati,

η_a - antenning foydali ish koeffitsiyenti, P_a – antennadagi quvvat.

Oraliq konturining soni ($m > 1$) ko'p bo'lganda, yuqoridagi ifodaning maxraji ham kontur F.I.K.ni ko'paytmasidan iborat bo'ladi.

Antennaning F.I.K. $\eta_a = \eta_a / (\eta_a - x_Q / Q)$ ga teng.

Bu erda η_a – antennaning aktiv qarshiligi,

x_a – antennaning reaktiv qarshiligi,

Q – antenna konturining saxiyiligi.

Aktiv element (AE) sifatida lampa ishlatilganda mumkin bo'lgan quvvatlan tashqari, ta'minlovchi manba kuchlanishi U_a va AElarning ulanish koeffisientini e'tiborga olish kerak.

AE sifatida tranzistor ishlatilganda 3-jadvaldan foydalanish kerak. Agar berilgan quvvat P_e va ish chastotasi f_{ish} jadvaldagidan farq qilsa, u holda quvvat kuchaytirish koeffisientini qayta hisoblab chiqish kerak. $K_r < 10-15$ bo'lganda:

$$K_p = K_{pe} \left(f_{ish} / f_{cheg} \right)^2$$

Kollektor kuchlanishi E_k kamaytirilganda, va F.I.K. $\eta = 60\%$ bo'lgan holda K_p (E_k / E_{ke}) ga proporsional ravishda kamayadi. Shuning uchun E_k ni jadvalda ko'rsatilgan qiymatini olish kerak. Agar tanlangan tranzistor uchun kerakli qiymatlar jadvalda bo'lmasa, ularni quyidagicha hisoblash mumkin:

$$I_{k\ max} = 10P_{\sim} / U_k < I_k$$

U_k va I_k – tranzistor kollektorining kuchlanishi va toki

$$T_{o't} = T_m + R_{k\ o't} P \cong T_{o't}$$

T_m - muhit harorati, $R_{k\ o't}$ - kollektor o'tish qismining qarshiligi, $T_{o't}$ – esa shu qismning harorati.

$$f_{ish} \leq 0,5 f_{cheg} \quad (1)$$

f_{cheg} - radioto'liqning yuqori chegaraviy chastotasi. f_{ish} -ishchi chastota. (1)
ifodani bajarilishi kerakli quvvatini olish uchun kerak:

$$P_{\Sigma} = \frac{P_{\sim}}{S_{kr} E_k^2} \leq 0,1 \quad (2)$$

P_{Σ} – normallashtirilgan quvvat. Agar (2) tenglama bajarilmasa FIK 40% dan past bo'ladi. Agar berilgan ish chastotasi f_r da quvvatni beradigan tranzistor topilmasa, u holda RUQ da chastota ko'paytirgich ishlatishga to'g'ri keladi. Chastota ko'paytirgichning ko'paytirish koeffisityenti $N = 2-3$ dan oshishi kerak emas.

Ta'minlovchi zanjir sxemsini shunday tanlash kerakki, tranzistorning umumiy elektrodi, radiosignallarni uzatuvchi qurilmani massasi bilan ulanishi kerak.

Oraliq kaskad sxemalarini tanlash va ular sonini aniqlash

Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalarda qo'llaniladigan oraliq kaskadlar quyidagi talablarni qanoatlantirishi kerak:

- a) Chiqish kaskadi uchun kerakli quvvatni ishlab berish kerak.
- b) Chiqish kaskadiga ta'sir qiluvchi signal amplitudasini bir xil qilib, ushlab turish kerak.
- c) Chiqish kaskadini o'z-o'zidan ishlovchi generatorning chastota turg'unligi bo'lgan ta'sirini susaytirish kerak.

Oraliq kaskadlarda asosan 1- jadvalda keltirilgan bir konturli 1-3 sxemalar qo'llaniladi. Bu kaskadlarning quvvatini yuqorida keltirilgan (1) ifoda orqali topish mumkin. Kaskad o'ta kuchlanish ish holatida ishlashi kerak.

Oraliq kaskadlar sxemaning turiga qarab uch guruhga bo'linishi mumkin:

- a) rezonansli kaskad kuchaytirgichlari;
- b) aperiodik kaskad kuchaytirgichlari;

v) keng to'liq diapazonida ishlovchi kaskadlar.

Bulardagi sozlash va boshqarish elemenlarini kamaytirish maqsadida 3-guruh kaskadlari ko'proq ishlatiladi. Aperiodik kaskad kuchaytirgichlari kam quvvatli, ya'ni bufer kaskadlarda ishlatiladi. Birinchi va ikkinchi guruh kaskadlari ishlatilganda, filtrlash asosan chiqish kaskadida amalga oshiriladi. Rezonans kaskadlar bir taktli va ikki taktli sxema asosida ishlatilishi mumkin. Chiqish oldi kaskadi quvvatini aniqlash uchun uning tebranish konturining F.I.K.ni aniqlash kerak. Odatda F.I.K. $\eta_k = 0,8-0,85$ atrofida olinib, bu quvvat ko'paytirish koefitsiyentiga bog'liq bo'ladi.

$$K_p = 2 \dots 40$$

Oraliq kaskadga tranzistor tanlashda ikki narsaga ahamiyat berish kerak:

a) Tranzistor iste'molchiga talab qilingan quvvatni kuchaytirib berishi kerak.

b) Diapazonning yuqori chastotasida tranzistorning kuchaytirish koefitsiyenti 3 dan kam bo'lishi kerak emas.

$K_p < 3$ bo'lganda struktura sxemadagi kaskadlar soni ko'payadi, bu esa radiosignallarni uzatuvchi qurilmalarni ishlash turg'unligini va F.I.K.ni pasaytiradi.

Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalarda ishlatiladigan modulyatsiya turlari

Ma'lumki hozirgi paytda ishonchli va nisbatan arzon bo'lgan raqamli bo'lgan radiouzatuvchi qurilmalari keng ishlatilmoqda. Ularda uzatilishi kerak bo'lgan axborot tashuvchi signalga raqamli modulyatsiya orqali qo'shiladi. Raqamli modulyatsiya analogli modulyatsiyaga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. Bular qatoriga chastotalar spektrini unumliroq ishlatilishi, halaqit bardoshlikni yuqoriligi, ko'p stansiyali boshqarilishni effektivligi, axborot yaxshi himoyalanganligi kabilar kirishi mumkin. Masalan yuqori darajali raqamli modulyatsiya QAM analog modulyatsiyaga nisbatan radiosignal chastota spektri ancha unumli ishlatadi. Bu modulyatsiya turida

kodlash jarayonida kodli modulyatsiyani ishlatish radiosignalni shovqin halaqitlarga va tovush yo`q bo`lish hodisalarga bardoshlilikini oshiradi. Raqamli modulyatsiyada signal spektrini kengligi oshirish bir vaqtni o`zida tovush yo`q bo`lish hodisasini bartaraf qiladi va qabul qilish paytida signalni ko`p nurli tarqatilishni birlashtiradi, interfrekvensiyaga bo`lgan halaqitbardoshlikni oshiradi. Bundan tashqari ko`p signallarni qabul qilish imkonini beradi. Shu jihatdan bugungi kunda simsiz radioaloqa tizimida deyarli raqamli modulyatsiya, ya'ni raqamli uzatish qurilmalari ko`proq ishlatiladi.

Raqamli modulyatsiyada axborotni aloqa kanali bo`yicha uzatish bitlar oqimi tarzda uzatiladi. Bu bitlar axborot manbadan keladi. Axborot manbai analogli

(ARO` barajildi) yoki raqamli bo`lishi mumkin. Bit- bu 1 yoki 0 qiymatlarni oluvchi ikkilik simvollardir. Axborotni bit oqimi ketma-ketligi olish uchun axborot manbai chastota bo`yicha siqilishi mumkin. Raqamli modulyatsiya axborot bitlarini aloqa kanalidan uzatish paytida axborot bitlari uzatilishdan oldingi holatiga qaytariladi.(1)

Modulyatsiya turini tanlashda quyidagilarga amal qilinadi:

- Axborotni uzatish tezligi yuqori bo`lishi kerak
- Signalni chastota spektri effektiv ishlatilishi kerak
- Uzatuvchi quvvati minimal qiymatga ega bo`lishi (minimal talab qilingan quvvat)
- Aloqa kanalidagi signallar halaqit bardosh bo`lishi kerak
- Axborotni uzatish kam quvvatli va narxi qimmat bo`lmasligi kerak


Ko`p hollarda bu talablar qarama – qarshi bo`ladi va optimal natija olish uchun

Modulyatsiyani quyidagi turlari mavjud:

- Amplitudali
- Chastotali
- Fazali

Chastota bo`yicha modullashtirilgan signal doimiy tashkil etuvchiga ega bo`lib, nochiziqli usullar bilan ishlab chiqiladi. Shuning uchun uni nochiziqli modulyatsiya yoki doimiy tashkil etuvchisi bo`lgan modulyatsi-

ya deyiladi. Amplitudali va fazali modulyatsiya chiziqli usullar bilan ishlab chiqiladi va chiziqli modulyatsiya deyiladi. Odatda chiziqli modulyatsiyani spectral xarakteristikalarini nochoziqligiga nisbatan ancha yaxshi bo`ladi. Lekin amplitudali va fazali modulyatsiyada axborot amplitudani yoki fazani o`zgartiradi, ya'ni amplitudada yoki fazada joylashgan bo`ladi. Amplituda va faza esa ko`proq interfrensiya va tovush yo`q bo`lish hodisasi ta`sirida bo`ladi. Bundan tashqari bu turdagi modulyatsiyani kuchaytirish uchun chiziqli kuchaytirgich kerak bo`ladi. Shuning uchun modulyatsiyani turini tanlashda yuqorida bayon qilingan fikrlarga qarab tanlanadi. Simsiz aloqa tizimida modulyatsiya turini tanlash (1 2) kechiktirilgan signallarni fazaviy konsepsiyaga asoslangan. Bundan tashqari bu adabiyotlarda (1) signallarni fazaviy konsepsiyasi amplituda impulsli AIM (PAM – Pulse Amplitude Modulation), Fazali manipulyatsiya FMN (PSK – Phase – Shift keying), Kvadraturali amplitudali modulyatsiya KAM (QAM – Quadrature Amplitude Modulation) tahlil qilish uchun qo`llaniladi.



6-rasm. Simsiz aloqa tizimining strukturaviy sxemasi.

Simsiz aloqa tizimini strukturaviy sxemasini ko`rib chiqamiz. U radiosignallarni uzatuvchi qurilma, aloqa kanali va radiosignallarni qabul qiluvchi qurilmadan tashkil topgan. Har bir T sekund davomida simsiz aloqa tizimi aloqa kanali orqali $K = \log_2 M$ axborot bit oqimi $R = K/T$ bit/sek tezlik bilan uzatadi. Axborot bit oqimini $M = 2^K$ mumkin bo`lgan ketma ketligi mavjud. Shuning uchun har bir ketma-ket  $K$  bit  $m_i = \{b_1, \dots, b_k\} \in M$  ko`rinishidagi axborotni tashkil etadi.

Bu yerda $M = \{m_1, \dots, m_M\}$ - barcha axborotlarni to`plami. Bularning tanlash ehtimoli  $P_i$ ,  $\sum_{i=1}^M P_i = 1$   $m_i$  axborot  $[0, T]$  vaqt oralig`ida uzatilishi kerak. Aloqa kanali anologli bo`lganligi uchun, axborot ham anologli


koʻrinishiga oʻzgartirilishi kerak, yaʼni $m_i \in M$ koʻrinishidagihar bir axborot $S_i(t) \in \{S_1(t), \dots, S_M(t)\}$ koʻrinishida analog signalga aylantiriladi. Bu signal vaqt boʻyicha $[0, T]$ oraligʻida va quyidagi energiyaga ega.

$$E_{si} = \int_0^T S_i^2(t) dt$$

Har bir axborot bitlar ketma – ketligidan iborat boʻlgani, unga tegishli boʻlgan har bir $S_i(t) \in S$ signal ham bitlar ketma-ketligidan iborat boʻladi. Uzatilgan $S_i(t)$ signal radiosignallarni qabul qiluvchi qurilmada bitlar ketma – ketligi tarzida demodulyatsiya qilinadi. Axborot ketma – ket uzatilganda, unga tegishli uzatilayotgan signal ham analog signallar $[kT, (k+1)T]$ vaqt oraligʻida ketma ketlikni hosil qiladi.

$$S(t) = \sum_k S_i(t - kT)$$

Bu yerda $S_i(t) - [kT, (k+1)T]$ vaqt oraligʻidagi keng polosali signal.



7-rasm. Axborot ketma-ketligiga tegishli uzatilayotgan signal

Simsiz aloqa tizimini 6-rasmdagi struktura sxemasida signal AWGN additiv oq shovqinli aloqa kanali orqali uzatiladi. Qabul qilishda uzatilgan bu signalga spektral zichligi $N_0/2: r(t) = s(t) + n(t)$ boʻlgan oq gausli shovqin $n(t)$ qoʻshiladi. Berilgan $r(t)$ funksiyaga qarab radiosignalni qabul qiluvchi

qurilma $[kT, (k+1)T]$ oraliqda uzatilayotgan $S_i(t)ES$ sugnallar ketma-ketligidan eng yaxshisini tanlaydi. Bu eng yaxshi signalga $m_i(t) \in M$ axborot to'g'ri keladi. Radiosignalni qabul qiluvchi qurilmani chiqish qismida axborot $m = \{b_1, \dots, b_k\} \in M$ ko'rinishidagi uzatilgan bitlar ketma-ketligida namoyon bo'ladi. [1,2].

Yuqorida bayon qilinganidek burchak modulyatsiyasida uzatilayotgan xabar ta'sirida tashuvchi signalni fazasi o'zgaradi. Faza devyatsiyasi uncha katta bo'lmagan paytda $m_f \ll 1$ FM uchun, $m_{CHM} \ll 1$ ChM uchun tashuvchi signal spektri amplitudali modulyatsiya spektriga o'xshash bo'ladi. Faqat quyi yon chastota tashkil etuvchisi ($\omega_0 - \Omega$) fazasi yuqori yon tashuvchiga nisbatan ($\omega_0 + \Omega$) teskari bo'ladi. Burchak modulyatsiyada halaqit bardoshlikni oshirish uchun $m_f \gg 1$ ish holati qo'llaniladi. Bu holda signal spektri ancha keng bo'ladi va band qilingan chastota oralig'i quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$P_b = 2\Omega(m_f + 1) \approx 2 \omega_n$$

Bu ifodadan ko'rinish turibdiki, chastotali modulyatsiyada ($m_f \gg 1$) band qilingan chastota oralig'i modulyatsiya qiluvchi signal chastotasiga bog'liq bo'ladi. $P_b \approx 2 a_w U_\Omega$, fazali modulyatsiyada esa proporsional bo'ladi.

$$P_b \approx 2 \Omega_{maks} a_f U_\Omega$$

Modulyator sxemasini tanlash

Modulyator past chastotali ko'paytirgich bo'lib unda rezistorli yoki yoki transformatorli iste'molchi ishlatiladi. Modulyatorda kollyektorli (anodli) modulyasiya ishlatilganda, modulyasiya qilinayotgan kaskadni aktiv elementidan foydalaniladi. Ta'minlovchi manba umumiy bo'ladi. Modulyator chiqish qismining F.I.K. 50% dan oshmaydi; shuning uchun modulyatorga berilayotgan quvvat $P_{bp} = 2P_m$ ga, tokni doimiy tashkil etuvchisi $I_{0m} = P_{0m}E_m$ ga teng bo'ladi.

Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalarni xomaki hisoblashda modulyator quvvatining taxminiy qiymatini, modulyasiya transformatorining F.I.K. ni ($\eta_{tr} = 0.35 \dots 0.035$) hisobga olgan holda quyidagi ifoda orqali hisoblash kerak:

$$P_m = (m^2 E_{AM} I_{0m}) / \eta_{tr}$$

Radiotoʻlqinlarni uzatuvchi qurilmalarning kaskadlarini hisoblash

Radiosignallarni uzatuvchi qurilmalarning struktura sxemasi va uning alohida kaskadlarining soni aniqlanganidan keyin, struktura sxema taxminiy hisoblanadi. Hisoblash natijasida chiqish kaskadining sxemasi, quvvati P_{chiq} , antennadagi quvvat P_a , aktiv elementni turi maʼlum boʻladi. Keyin chiqish oldi kaskadining ish holatlari toʻla hisoblanadi. Hisoblash paytida manbaning kuchlanishi, yuqori chastotali isteʼmolchi qarshiligi Z_n aniqlanadi. Z_n ni qiymati shunday boʻlishi kerakki, bunda AE isteʼmolchiga talab qilingan quvvatni ishlab berish kerak.

Agar loyihalayotgan radiouzatuvchi qurilma AMli boʻlsa, kaskadining ish holati modulyasiya turiga qarab aniqlanadi. Siljish kuchlanishi E_s orqali modulyatsiya amalga oshirilganda, kaskadning ish holati kam kuchlanganlik boʻladi. Quvvat quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P = P_{\text{tash}}(1+m)^2$$

Modulyatsion tavsifnoma chiziqli boʻlishi uchun kollektor tokining kesish burchagi $\theta = 100-110^\circ$ boʻlishi kerak. Kollektorli modulyatsiya chiqish kaskadida amalga oshiriladi va kaskad oʻta kuchlanganlik ish holatida ishlashi kerak. Chiqish kaskadining quvvati “telefon” ish holati uchun (1) ifoda orqali hisoblanadi. Kollektor tokining kesish burchagi $\theta = 80-90^\circ$ ga teng. Televizion uzatuvchi qurilmalarda, modulyatsiya kam quvvatli kaskadlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun bunday radiouzatuvchi qurilmalarda modulyatsiya qilingan signallarni kuchaytirish kerak. Bunday kuchaytirgichlar kam kuchlanganlik ish holatida ishlatiladi va kesish burchagi $\theta = 90^\circ$ qilib olinadi. Bu holda nochiziqli buzuqliklar kam miqdorda boʻladi. 100% li modulyatsiyani amalga oshirish uchkn kesish burchagi θ ni quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkin:

$$\theta_{\text{max}} = \arccos[(1 - m_b)/(1 + m_b)]$$

m_b – katta qiymatga ega boʻlgan modulyatsiya koeffitsiyenti.

Chiqish va chiqish oldi kaskadlarining ish holatlarini hisoblash

Chiqish kaskadi uchun tranzistor, berilgan yoki hisoblangan chiqish quvvati (R_{chq}) va ish chastotasiga (f_{ish}) qarab tanlanadi. Tranzistorni tanlashda 3- jadvaldan yoki boshqa adabiyotlardan (spravochnik) foydalanish mumkin.

3 –jadval

Tranzistor parametrlari

Toʻlqinlar diapazoni	Tranzistor turi	Eksperimental parametrlari $t=20^{\circ}\text{S}$						Chegaraviy qiymatlari			
		f_{ish} MGs	P_{nom} W	K_{pe}	E_k , V	η , %	E_m V	$E_{kch.}$ V	P_m W	I_k A	$t_M^{\circ}\text{C}$
Dekametrli	KT602	6	1	10	15	-	30	25	-	1,5	85
	P701	1	1,6	8	25	-	10	80	2,5	0,5	150
	KT801	-	-	-	-	-	80	80	2	2	150
	KT802	20-	30	8	30	50	150	90	3	10	150
	KT804	-	-	-	-	-	190	75	2	-	-
	KT805	-	-	-	-	-	180	160	5	8	150
	KT903	25	18	8	-	-	60	60	4	3	150
	KT603	50	0,1	5	8	60	20	12	3	0,12	85
Metrli va des- imetrli	KT602	100	1,0	-	-	-	120	100	5	0,5	150
	KT603	150	0,5	3	-	55	30	30	3	0,5	150
	KT904	100	8	8	-	73	-				
	KT913A	1500	3,5	2	28	60	55	55	3,5	0,5	150
	KT913B	1500	6	2	28	60	55	55	3,5	1	150
	KT640A	6000	0,1	4	15	-	25	-	3	0,06	150
	KT919A	1350	4,4	4,4	28	-	45	-	3,5	0,7	150
	KT930A	1000	40	5	28	-	-	28	4	6	150
	KT930B		75	3,5	28	-	-	28	4	10	150

Chiqish quvvati tranzistor harorati 20°C boʻlgan hol uchun hisoblanadi, chunki harorat oshishi bilan foydali chiqish quvvati kamayadi. Ish chastotasi kamayishi bilan, tranzistor ishlab berayotgan foydali quvvat oshadi. Bu asosan tranzistor ish holatining kuchlanganligi hisobiga boʻladi.

Yuqori chastotali quvvatli tranzistorlarni kuchaytirish ish holatida ishlatilganda, ularning ishlab beradigan quvvati R_{chiq} , uning mumkin bo'lgan quvvati R_{mum} ni 40-50 % ni tashkil etishi kerak. Aks holda tranzistorning F.I.K. kamayib ketadi.

Odatda adabiyotlarda tranzistor uchun chastota oralig'i ($f_{max}-f_{min}$) ko'rsatiladi. Quyi ish chastotasi f_{min} tranzistorni chegara ish chastotasining 20-30% ni tashkil etishi, yuqorisi f_{max} esa f_{chyeq} ga yaqin bo'lishi kerak.

Nisbatan past chastotalarda umumiy emmitterli sxema, yuqori chastotalarda esa umumiy bazali sxemalar ishlatiladi.

Agar tanlangan tranzistor jadvalda keltirilmagan bo'lsa, u holda uning xususiyatlarini, pasportida keltirilgan f_{chyeq} , r'_e , S_k , S_e orqali topish mumkin. Bundan tashqari L_{umum} induktivlikni bilish kerak. Odatda $L_{umum}=0,1-0,4$ nGn, kollektor L_k va L_b induktivliklar qiymati 5 baravar ko'p qiymatni tashkil etadi. $C(5...10)C_k$, $r'_k \approx r'_e \approx 0,3r'_b$.

Tokni uzatish ko'effitsiyenti h_{21} yuqori chastotali ko'paytirgichlarni hisoblashda 10÷100ga tyeng bo'lishi mumkin. Statik tavsifnomalarning siljish kuchlanishi U' kremniy asosida tayyorlangan tranzistorlarda 0,6-0,9V ni tashkil etishi mumkin. Tranzistor qiyaligi S_{cheg} taxminan $15P_{chiq}/U_{ko}^2$ ga teng qilib olinadi.

Hisoblash paytida quvvat kuchaytirish ko'effitsiyenti K_p ning qiymati, pasportda ko'rsatilgan qiymatidan 20% ga farq qilsa, ekvivalent sxema elementlari to'g'ri tanlangan deyish mumkin.

Emmitterga qo'yilgan U_{ebmax} teskari kuchlanish, chegaralangan qiymatdan kop'roq olish kerak.

Yuqorida qayd qilingan ishni loyihalash uchun I_{chiq} , f_r , t_{sr} berilishi kerak. Agar talab qilingan quvvat tranzistor quvvatiga yaqin bo'lsa, u holda kuchlanishni $U_{ko} = 28$ V qilib, ish holatini esa kritik qilib olish kerak. Agar talab qilingan quvvat tranzistor quvvatiga yaqin bo'lsa, kuchlanishni kamaytirish kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, U_{ko} ni ikki baravar kamaytirish f_{chyeq} ning (5-15)% kamayishiga, S_k ni esa 15-40% ko'paytirishiga olib keladi.


Siljish kuchlanishi U_s odatda, quvvati kata bo'lgan kuchaytirgichlarda nolga teng qilib olinadi. Bu sxemani soddalashtirishga va kesish burchagini

$0=90^\circ$ ga teng qilishga imkon beradi. Tranzistor haroratini $t_k = t_m + (10...20)^\circ\text{C}$ ga teng qilib olish mumkin.

Umumiy emmitterli sxemalarda ekvivalent generator ishlab berayotgan quvvat P_g ni $(0,5...1)f_{\text{cheg}}$ chastotalarda chiqish quvvatidan (P_{chiq}) 10-25% kam olish kerak. Ish chastotasi chegaraviy chastotadan ($f_{\text{ish}} > f_{\text{cheg}}$) katta bo'lganda P_r ni 40-50% ko'proq olish kerak. Aloqa boglovchi peredatchikni hisoblash quyidagicha olib boriladi:

4. FAZA BO'YICHA MODULLASHTIRILGAN ALOQA BOG'LOVCHI RADIOSIGNALLARNI UZATUVCHI QURILMANI HISOBLASH

Hozirgi paytda keng qo'llanilayotgan fazali modulyatsiyali aloqa bog'lovchi tranzistorli radiosignallarni uzatuvchi qurilmalar quyidagi strukturaviy sxema asosida yaratiladi:



8-rasm. Fazali modulyatsiyali aloqa bog'lovchi tranzistorli radiosignallarni uzatuvchi qurilmaning strukturaviy sxemasi.

AG – tashuvchi signal avtogeneratori

BK1, BK2 – kirish qarshiligi kata bo'lgan bufer kaskadi, chastota ko'paytirgichini tashuvchi signal generatoriga bo'lgan ta'sirini kamaytiradi

CHK – chastota ko'paytirgich

FM – varikap asosida ishlaydigan fazali modulyator

PCHK –past chastota kuchaytirgichi

QK – quvvat kuchaytirgichi

MZ- moslovchi zanjir

Radiosignallarni uzatuvchi qurilma tarkibidagi kaskadlarni kuchaytirish ko'effitsiyentlarini aniqlash

Umumiy emitterli quvvat kuchaytirgichlarni haqiqiy kuchaytirish ko'effitsiyentlari ishchi chastota (f_{ish}) va tranzistorni chegaraviy chastotasini (f_{cheg}) nisbatiga bog'liq bo'ladi va ishchi chastota oshishi bilan kamayadi.

UKV (ultra qisqa to'lqin) diapazonida ishchi chastota $f_{ish} = 0,3... 0,7 f_{cheg}$ bo'lganda, radiosignallarni uzatuvchi qurilmani (peredatchikni) strukturaviy sxemasini hisoblash uchun quyida keltirilgan kuchaytirish ko'effitsiyentlari qabul qilinadi.

- Kuchaytirish kaskadlari uchun $K_{pk} = 3...10$
- Bufer kaskadlari uchun $K_{pbk} = 3...5$
- Chastota ko'paytirgichlari uchun $K_{pn} = \frac{K_{pk}}{n}$, n – chastotani ko'paytirish ko'effitsiyenti
- Fazali modulyator (FM) signalni bir muncha susaytiradi, shuning uchun $K_{p\,fm} = 0,1...0,3$ deb olish mumkin.

Peredatchikni umumiy kuchaytirish ko'effitsiyenti quyidagi ifoda bilan topiladi.

$$K_{p\,um} = \frac{P_{chiq}}{P_{kir}} = K_{pbk} \cdot K_{p\,fm} \cdot K_{pbk} \cdot K_{pn} \cdot K_{pk}$$

Chastota ko'paytirgichni ko'paytirish ko'effitsiyenti odatda $n = 2-3$, tashuvchi signal generatorini (avtogeneratorni) chastotasi esa $f_{ag} = 10...15$ MGs deb olinadi.

Radiosignallarni uzatuvchi qurilmaning strukturaviy sxemasini hisoblash namunasi

Hisoblash uchun berilgan qiymatlar:

Antennadagi quvvat $P_a = 20$ W

Tashuvchi signal avtogeneratorini quvvati $P_{ag} = 10 \text{ mW}$

Ishchi chastota $f_{ish} = 120 \text{ MGs}$

Strukturaviy sxemani hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Chastota ko'paytirgichlarni soni aniqlanadi.

$$n_{umum} = \frac{f_{ish}}{f_{ag}}; \quad n_{umum} = \frac{120}{10 \dots 15} = 8 \dots 12;$$

Chastota ko'paytirish koefitsiyentini $n = 2 \dots 3$ deb olamiz. Agar chastotani ko'paytirish koefitsiyentini, $n = 3$ teng qilib olinsa, u holda chastotani umumiy ko'paytirish koefitsiyenti $n_{umum} = 9 = 3 \times 3$ bo'ladi. Demak ko'paytirish koefitsiyenti $n = 3$ bo'lgan ikkita chastota ko'paytirgichini ishlatish kerak.

2. Avtogeneratorni chastotasi:

$$f_{ag} = \frac{f_{ish}}{n_{umum}}; \quad f_{ag} = \frac{120}{9} = 13,333 \text{ MGs};$$

3. Kuchaytirgichni quvvat bo'yicha kuchaytirish koefitsiyenti

$$K_{pn1} = K_{pn2}; \quad K_{pn1} = \frac{3 \dots 10}{3} = 1,0 \dots 3,3$$

